

2/2025,
mart-
aprel
(№ 00076)



ISLOM MIKROMOLIYASI MODELLARI TAHLILI: XALQARO AMALIYOT VA TAJRIBA

Axmedova O‘g‘ilshod Musurmonqul qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi (PhD) doktoranti

ORCID: 0000-0002-2253-077X

E-mail: ugilshod.akhmedova@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss2/653

Annotatsiya

Ushbu maqolada islom mikromoliyasi modellari va ularning faoliyat usullari tahlil qilingan. Bir qancha mamlakatlardagi, jumladan, Indoneziya, Bangladesh, Sudan va Pokistondagi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan Baitul Maal Wat Tamwil, Bangladesh Islom bankidan Qishloq hududlarini rivojlantirish dasturi, Sudan qishloq xo‘jaligi banki va Akhuwat Islamic Microfinance kabi modellar o‘rganilgan. Maqolada, shuningdek, Islom mikromoliyalasi faoliyat usullaridan murakkab (aralash), vakala agentlik, mudoraba hamda SPV usullari nazariy va tashkiliy jihatdan batafsil tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Islom mikromoliyasi, Baitul Maal Wat Tamwil, Bangladesh Islom bankidan Qishloqni rivojlantirish dasturi, Sudan qishloq xo‘jaligi banki va Akhuwat Islamic Microfinance modellari, Islom mikromoliyasining murakkab (aralash) usuli, vakala agentlik usuli, mudoraba usuli, SPV usuli.

ANALYSIS OF ISLAMIC MICROFINANCE MODELS: INTERNATIONAL PRACTICE AND EXPERIENCE

Akhmedova Ugilshod Musurmonkul kizi

PhD student at the Research Center “Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan” at the Tashkent State University of Economics

Abstract

This article analyzes Islamic microfinance models and their operating methods. Such models (programs) as Baitul Maal Wat Tamwil, the Rural Development Scheme from the Islami Bank of Bangladesh, the Agricultural Bank of Sudan, and Akhuwat Islamic Microfinance, which have been successfully implemented in several countries, including Indonesia, Bangladesh, Sudan, and Pakistan, were studied. The article also provides a detailed theoretical and organizational analysis of Islamic microfinance operating methods including the complex (mixed) method, wakala agency method, mudaraba method, and SPV methods.

Keywords: Islamic microfinance, Baitul Maal Wat Tamwil, Rural Development Scheme from Bangladesh Islamic Bank, Sudan Agricultural Bank and Akhuwat Islamic Microfinance models, complex (mixed) method of Islamic microfinance, wakala agency method, mudarabah method, SPV method.

АНАЛИЗ МОДЕЛЕЙ ИСЛАМСКИХ МИКРОФИНАНСОВ: МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА И ОПЫТ

Ахмедова Угилшод Мусурмонкул кизи

Докторант Научно-исследовательского центра «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация

В данной статье анализируются модели исламского микрофинансирования и методы их функционирования. Были изучены такие программы, как Baitul Maal Wat Tamwil, Программа развития сельских районов Исламского банка Бангладеш, Сельскохозяйственный банк Судана и Исламское микрофинансирование Ахуват, которые были успешно реализованы в ряде стран, включая Индонезию, Бангладеш, Судан и Пакистан. В статье также подробно анализируются теоретические и организационные аспекты комплексного (смешанного) метода, агентского метода вакала, метода мудараба и метода SPV среди методов исламского микрофинансирования.

Ключевые слова: Исламские микрофинансы, Baitul Maal Wat Tamwil, Программа развития села от Исламского банка Бангладеш, программа Суданского сельскохозяйственного банка и Akhuwat Islamic Microfinance, комплексный (смешанный) метод исламского микрофинансирования, агентский метод вакала, метод мудараба, метод SPV.

KIRISH

Islom mikromoliya tashkilotlari zamonaviy iqtisodiy voqelik va jamiyat ehtiyojlariga moslashgan holda uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Ularning evolyutsiyasi islom iqtisodiy tamoyillariga muvofiq moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va ijtimoiy jihatdan zaif guruhlar uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini ta'minlash zarurati bilan bog'liq. An'anaviy moliya tizimidan farqli o'laroq, islom mikromoliya o'z faoliyatini islom iqtisodiy tamoyillari asosida yuritadi. Ushbu tamoyillar risklarni taqsimlash, real iqtisodiyotga investitsiya yo'naltirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan. Bu jihatlar islom moliyalashtirish mexanizmlarini mikromoliya sohasida samarali vositaga aylantiradi, chunki mikromoliya institutlarining asosiy maqsadi kichik tadbirkorlar va kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Islom mikromoliya modeli ijtimoiy adolat va barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, moliyaviy inklyuziyani oshirish orqali kambag'allikka qarshi kurashishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi¹.

Islom mikromoliyasi instrumentlarining shakllanishi qarzi hasan (foizsiz qarzlar), murobaha (xarajatlar, foyda va tannarx bo'yicha savdoni moliyalashtirish) va ijara (lizing) kabi oddiy modellarning yaratilishi bilan boshlangan. Ushbu instrumentlar mikromoliya tashkilotlariga islom tamoyillariga javob beradigan an'anaviy kredit mahsulotlariga muqobil taklif qilish imkonini berdi². Sohaning o'sishi bilan mudoraba (kiritilgan investitsiyani boshqarishga asoslangan sherikchilik) va mushoraka (sharikchilik) kabi murakkab moliyaviy mexanizmlar paydo bo'ldi, bu esa tadbirkorlik faoliyati va tavakkalchilikka asoslangan

¹ Abdalla R. A., Alaaraj H. K., Mulla G. S. The Contribution of Islamic Banking and Finance to the Sustainable Development Goals of 2030 //Sustainable Innovations in Management in the Digital Transformation Era. – Routledge, 2024. – C. 249-261.

² Rahim Abdul Rahman A. Islamic microfinance: an ethical alternative to poverty alleviation //Humanomics. – 2010. – T. 26. – №. 4. – C. 284-295.

loyihalar uchun imkoniyatlarni kengaytirdi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan islom mikromoliya tashkilotlari o‘z xizmatlarining samaradorligini oshirish uchun fintech yechimlaridan faol foydalana boshladilar. Mobil banking, raqamli to‘lov tizimlarining joriy etilishi va yashil moliyalashtirish bilan integratsiyalashuvi islom mikromoliyasi uchun yangi istiqbollarni ochib berdi³. Shunga qaramay, sektor oldida muhim vazifalar, jumladan, ko‘rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarning ijtimoiy ta‘sirini tartibga solish, boshqarish va baholash masalalari turibdi⁴. Shunday qilib, mikromoliya sektorida islom moliyasi instrumentlarining evolyutsiyasi barqaror va inklyuziv moliyaviy yechimlarni yaratishga intilishni ko‘rsatadi. Innovatsiyalarni joriy etish va tartibga solishni takomillashtirish sohani yanada rivojlantirishga hissa qo‘shishi, uning zamonaviy iqtisodiy talablar va ijtimoiy maqsadlarga mos kelishini ta‘minlashi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI.

An’anaviy moliyaviy tashkilotlar kam ta‘minlangan aholini garov ta‘minotining yetishmovchiligi va kredit tarixining mavjud emasligi kabi omillar sababli yuqori risk guruhi sifatida baholab, ularga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishni cheklaydi. Natijada, ushbu ijtimoiy qatlam vakillari moliyaviy ehtiyojlarini norasmiy tuzilmalar orqali qondirishga majbur bo‘ladilar. Biroq, bunday manbalardan olingan mablag‘lar odatda haddan tashqari yuqori foiz stavkalari bilan taqdim etiladi, bu esa aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan yanada og‘irlashishiga, hatto avlodlararo qarzning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan, 1960-1970-yillardan boshlab nodavlat tashkilotlar tashabbusi bilan kam ta‘minlangan aholini muqobil moliyalashtirish tizimlari orqali qo‘llab-quvvatlash maqsadida mikrokreditlash amaliyoti rivojlana boshladi.

Ko‘plab mamlakatlarda mikromoliyalash tashkilotlari, xususan, Bangladeshdagi Grameen Bank tomonidan ishlab chiqilgan mikrokreditlash modeli amaliyotga joriy etildi. Ushbu tajriba natijasida kam ta‘minlangan aholi qatlamining moliyaviy xizmatlardan foydalana olish imkoniyati mavjudligi isbotlandi. Shuningdek, ilgari keng tarqalgan qarashlardan farqli o‘laroq, ushbu guruh vakillari kredit resurslarini o‘z vaqtida qaytarish qobiliyatiga ega bo‘lib, an’anaviy bank mijozlaridan sezilarli darajada yuqori risk tug‘dirmasligi aniqlangan.

Mit Ghamr Savings Bank (MGSB) 1963-yilda Misrda tashkil etilgan bo‘lib, 1967-yilda Nosir ma‘muriyati tomonidan yopilgan. Islom bankchiligi doirasidagi ushbu tashabbus mikromoliyalash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki MGSB faoliyati mahalliy kam ta‘minlangan aholi qatlamining kichik jamg‘armalarini yig‘ish va olingan foydani hisob egalari o‘rtasida taqsimlash tamoyiliga asoslangan edi. Shu sababli uni mikromoliya tashkilotlarining dastlabki namunalaridan biri sifatida baholash mumkin. MGSB va zamonaviy mikromoliya tashkilotlari o‘rtasidagi o‘xshashliklar quyidagicha umumlashtiriladi: qishloq aholisiga o‘zini o‘zi ta‘minlash imkoniyatini yaratish; ularga texnik va biznes masalalar bo‘yicha maslahat va qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etish; an’anaviy bank xizmatlaridan foydalana olmaydigan kam ta‘minlangan aholi qatlamlariga kichik miqdorda moliyaviy resurslar ajratish; kreditlarning qaytarilishini ta‘minlash maqsadida jamiyat bosimi mexanizmidan foydalanish⁵.

³ Ali H. et al. Islamic microfinance: landscape, models and future prospects. – Walter de Gruyter GmbH & Co KG, 2024.

⁴ Azman S. M. M. S., Ali E. R. A. E. Islamic social finance and the imperative for social impact measurement // Al-Shajarah: Journal of the International Institute of Islamic Thought and Civilisation (ISTAC). – 2019.

⁵ Sultan H. Islamic Microfinance: Between Commercial Viability and the Higher Objectives of Shari‘a // Shari‘a Compliant Microfinance. – Routledge, 2013. – C. 46-59.

MGSB faoliyatining ijtimoiy yo'naltirilganligi uni mikromoliya tizimi bilan yaqinlashtirgan. Biroq, keyinchalik tashkil etilgan islom banklari, asosan, tijorat manfaatlariga e'tibor qaratgan holda o'z faoliyatini shakllantirgan. Grameen Bankning tashkil etilishi va an'anaviy mikromoliya tizimining rivojlanishi orqali kam ta'minlangan aholini moliyalashtirish amaliyoti keng tarqalganidan ancha yillar o'tibgina islom moliyasi institutlari islom mikromoliyasi xizmatlarini taklif qila boshladi⁶.

Jahonda islom mikromoliyasining muvaffaqiyatli modellari soni an'anaviy mikromoliya tizimlariga nisbatan cheklangan. Buning asosiy sababini islom bankchiligining an'anaviy bankchilik tizimiga qaraganda kechroq, 1960-yillarda shakllana boshlagani bilan izohlash mumkin. Shuningdek, ayrim musulmon mamlakatlarida islom bankchiligini rasman tan olmaydigan huquqiy normalar islom mikromoliyasining rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, ayrim holatlarda islom mikromoliyasi to'liq moliyaviy institut sifatida emas, balki ijtimoiy tashkilot sifatida baholanadi, bu esa uning investitsiyalar jalb qilish va depozit operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini cheklaydi. Ushbu cheklovlar natijasida islom mikromoliyasining bozordagi ta'sir doirasi yetarlicha kengaymaydi, bu esa uzoq muddatda uning samaradorligi va barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu tadqiqotda ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni chuqur tahlil qilish uchun tizimli tahlil, ilmiy abstraktlash, guruhlashtirish, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil va tizimli yondashuv hodisalar va jarayonlarning o'zaro bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi. Ilmiy abstraktlash asosiy nazariy tushunchalarni shakllantirishga imkon berdi. Guruhlashtirish va qiyosiy tahlil esa turli moliyaviy tizimlarning o'ziga xos jihatlarini taqqoslash va tasniflashda qo'llanildi. Tahlil va sintez natijasida alohida tarkibiy qismlar o'rganilib, umumiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI.

Islom mikromoliyasining faoliyat tamoyillari va muvaffaqiyat omillarini aniqlash uchun dunyo miqyosida samarali deb e'tirof etilgan islom mikromoliya modellari qisqacha tahlil qilinadi.

1. Indoneziyada islom mikromoliyasi uch asosiy segmentda rivojlangan: **Baitul Maal Wat Tamwil** (BMWT), dastlab islom mikromoliyasi uchun norasmiy jamoat tashkiloti sifatida shakllangan; Bank Perkreditan Rakyat Syariah – islom qishloq banki; hamda islom tijorat banklari tarkibidagi mikromoliya bo'linmalari⁷.

BMWT 1980-yillarda hukumat tomonidan tan olinmagan norasmiy jamoat tashkiloti sifatida faoliyat boshlagan bo'lib, uning asosiy maqsadi kam ta'minlangan aholiga islom moliyasi xizmatlarini taqdim etish edi. Mavjud islom banklari ushbu guruhni qamrab olmagan sababli, ular jamiyatning moliyaviy tizimidan chetda qolgan edi. Osiyo moliyaviy inqirozidan so'ng, BMWT jamiyatga ko'rsatgan moliyaviy yordam jihatidan barqaror va samarali tashkilot sifatida e'tirof etildi. Natijada, hukumat uni rasmiy jamoat tashkiloti sifatida tan oldi va uni kam ta'minlangan aholi hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy strategiyaning tarkibiy qismiga aylantirdi. 2002-yilga kelib, BMWT tarmoqlari tez sur'atda kengayib, samaradorlik ko'rsatkichlarini yaxshiladi va kam ta'minlangan aholi

⁶ Farooq M. O. The challenge of poverty and mapping out solutions: requisite paradigm shift from a problem-solving and Islamic perspective //Journal of Islamic Economics, Banking and Finance. – 2009. – T. 5. – №. 2. – C. 45-76.

⁷ Poverty Reduction scaling up local innovation for transformational change report, United Nations Development Programme, November 2012, www.undp.org/poverty

uchun muhim moliyaviy institutga aylandi. Ushbu jarayon Indoneziya Markaziy bankini BMWTni rasmiy moliyaviy tashkilot sifatida tan olishga, uni boshqa banklar bilan integratsiyalashga hamda islom bankchiligini rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyaga kiritishga undadi⁸.

BMWT Indoneziyadagi islom mikromoliya tashkiloti bo'lib, u shuningdek, zakot, infoq, sadaqa va vaqf kabi ijtimoiy fondlarni professional darajada boshqaruvchi moliyaviy vositachi sifatida ham faoliyat yuritadi.

BMWTlarning aksariyati moliyalashtirishni ta'minlash va kredit bo'yicha defolt stavkasini pasaytirish maqsadida garov mexanizmlaridan foydalanadi. Shuningdek, omonatlar ham garov sifatida qabul qilinadi, ya'ni mijozlar ma'lum vaqt davomida kichik miqdorda jamg'arish orqali moliyalashtirish huquqini qo'lga kiritadilar. O'z biznesini rivojlantirayotgan va qo'shimcha mablag'ga ehtiyoj sezayotgan mijozlar bir nechta BMWTlar tomonidan taqdim etiladigan sindikatsiya moliyalashtirishidan foydalanish imkoniyatiga ega. BMWT tomonidan keng qo'llaniladigan asosiy moliyaviy shartnomalar murobaha, mushoraka mudoraba va qarzi hasan kabi islom tamoyillariga asoslangan instrumentlardan iborat⁹.

2. Bangladesh Islom banki (Islami Bank of Bangladesh) tomonidan 1995-yilda taqdim etilgan **Qishloq hududlarini rivojlantirish sxemasi** (Rural Development Scheme, RDS) Bangladeshdagi birinchi islom mikromoliya modeli hisoblanadi¹⁰. Ushbu dastur mikromoliya sohasidagi dunyoning yetakchi tajribalaridan biri bo'lgan Grameen Bank modeliga asoslanib, foyda va zararlarni taqsimlash tamoyillariga rioya qilgan holda islom iqtisodiyoti va moliyalasi tamoyillarini qo'llaydi¹¹.

RDS qishloq xo'jaligidan tashqari turli iqtisodiy faoliyatlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lib, xususan, quyidagi sohalarga qaratilgan: chorvachilik, qishloq uy-joylari, qishloq transporti, baliqchilik, boshqa tadbirkorlik faoliyatlari¹².

Bangladesh Islom banki allaqachon islom moliyasi mahsulotlarni taqdim etuvchi institut sifatida bu borada yetarli resurslar, bilim va tajribaga ega edi. Shuning uchun RDS modeli hukumat yoki tashqi donorlarning moliyaviy ko'magiga muhtoj bo'lmagan holda faoliyat yuritib, mamlakatda va xorijda birinchi islom mikromoliya mexanizmi sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu dastur Bangladesh Islom bankining umumiy investitsiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtirildi¹³.

RDS doirasida kreditlar naqd pul shaklida taqdim etilmaydi. Buning o'rniga, mijozlarga bevosita zarur tovarlar yetkazib beriladi, bu esa kredit mablag'larining daromad keltiruvchi faoliyatga yo'naltirishini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, RDS jamoaviy rivojlanish tamoyiliga asoslanib ishlaydi. Buning uchun:

- Har bir guruh bitta qishloqda yashovchi besh kishidan iborat bo'lishi lozim.

⁸ Jubaedah D., Sopiah E., Fatahillah I. A. The Strategy and Effectiveness of Baitul Maal wa Tamwil in Eradicating Loan Shark Practices in Java and Sumatra //Fonologi: Jurnal Ilmuan Bahasa dan Sastra Inggris. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 28-40.

⁹ O'sha manba.

¹⁰ Rahman M. M., Jafrullah M., Islam A. N. M. T. Rural development scheme of Islami Bank Bangladesh Limited (IBBL): assessment and challenges //International Journal of Economics, Management and Accounting. – 2008. – T. 16. – №. 2.

¹¹ Rahman M. M., Jafrullah M., Islam A. N. M. T. Rural development scheme of Islami Bank Bangladesh Limited (IBBL): assessment and challenges //International Journal of Economics, Management and Accounting. – 2008. – T. 16. – №. 2.

¹² O'sha manba.

¹³ Scaling up Islamic Microfinance in Bangladesh through the Private Sector: Experience of Islami Bank Bangladesh Limited (IBBL), – case study, UNDP, 2017.

– Markaz kamida ikkitadan sakkiztagacha guruhlarini o‘z ichiga oladi. Guruh rahbarlari orasidan markaz rahbari va uning o‘rinbosari saylanadi.

– Barcha guruhlar har hafta markaz yig‘ilishlarida ishtirok etishi talab etiladi.

– Kredit kafolati mexanizmi – har bir guruh a‘zosi boshqa a‘zolarning shaxsiy kafolati orqali kredit olish imkoniyatiga ega bo‘lib, qarzni qaytarishda barcha a‘zolar birgalikda javobgar hisoblanadi.

– Markaz yig‘ilishlari bank xodimlari tomonidan tashkil etilib, axloqiy qadriyatlar, investitsiyalarni qaytarish majburiyatlari, jamg‘arma va kredit to‘lovlari haqida ma‘lumot beriladi¹⁴. Moliyaviy xizmatlardan tashqari, RDS dasturi o‘quv kurslari, ta‘lim dasturlari, gumanitar yordam va sog‘liqni saqlash xizmatlari kabi moliyaviy bo‘lmagan xizmatlarni ham taqdim etadi.

3. Sudan qishloq xo‘jaligi banki. Sudan Bangladesh va Indoneziyadan tashqari, islom mikromoliya xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Sudan qishloq xo‘jaligi banki to‘liq islom mikromoliya tashkiloti bo‘lmasa-da, u mijozlar ehtiyojlariga asoslanib, 75% islom tamoyillariga mos keladigan mikroxizmatlarni taqdim etadi. Mazkur bank 1956-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning 60% ulushi Sudan Markaziy bankiga, 40% esa Sudan Moliya vazirligiga tegishli. Bankning kapitali taxminan 55 million AQSh dollarini tashkil etadi¹⁵. Bankning asosiy maqsadlaridan biri kambag‘allikni kamaytirish va kam ta‘minlangan aholining moliya tizimiga integratsiyasini ta‘minlash maqsadida mikromoliya mahsulot va xizmatlarni taklif etishdan iborat¹⁶.

Bank mikromoliyaning uch asosiy yo‘nalishiga e‘tibor qaratadi:

– An‘anaviy qishloq xo‘jaligi – fermerlarni aylanma mablag‘ bilan ta‘minlash, urug‘lik va o‘g‘itlar kabi xomashyolar xarid qilish, shuningdek, dehqonchilik uchun zarur asbob-uskunalar va texnikalarni sotib olishni moliyalashtirish. Chorvachilik ham ushbu yo‘nalishga kiradi¹⁷.

– Xalqaro qo‘llab-quvvatlash dasturlari – xalqaro ijtimoiy va davlat tashkilotlari, jumladan, Qishloq xo‘jaligi milliy jamg‘armasi bilan hamkorlik qilish orqali qishloq joylarda yashovchi kam ta‘minlangan aholiga yordam berish¹⁸.

– Qishloq xo‘jaligidagi ayollar – ayollarni iqtisodiy tizimga jalb qilish va ularning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash¹⁹.

Bank o‘z faoliyati davomida milliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qator rivojlantirish loyihalarini amalga oshirgan. Sudan qishloq xo‘jaligi banki islom tamoyillariga mos quyidagi moliyaviy instrumentlar orqali faoliyat yuritadi: mudoraba, mushoraka, murobaha, ijara, salam va istisno²⁰.

4. Akhuwat Islamic Microfinance (AIM) – Pokistonda 2001-yilda tashkil etilgan islom mikromoliya tashkiloti bo‘lib, hozirda 400 dan ortiq shaharda 800 dan ziyod filialga ega²¹. AIM dunyodagi eng yirik islom mikromoliya tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Tashkilotning

¹⁴ O‘sha manba.

¹⁵ Abdulla, Adam, Master thesis: Experience of Agriculture Sudan Bank, University of Science and technology Sudan, 2014

¹⁶ O‘sha manba.

¹⁷ Hoffmann A., Mohamed M., van den Tempel L. Sudan’s agricultural input supply in times of war. – 2024. – p. 22.

¹⁸ Alalawi A. Islamic Microfinance Performance: A Comparative Case Study in Bahrain (Family Bank and Ebdaa Bank): дис. – Hamad Bin Khalifa University (Qatar), 2018.

¹⁹ O‘sha manba.

²⁰ O‘sha manba.

²¹ <https://akhuwat.org.pk/akhuwat-islamic-microfinance/>

asosiy maqsadi – ijtimoiy birdamlik va moliyaviy inklyuziya orqali kambag'allikka qarshi kurashish. AIM tashkilotining ustav kapitali uning asoschisi va hozirgi ijrochi direktori Amjad Saqib hamda uning hamkorlari tomonidan shaxsiy mablag'lar hisobiga shakllangan. AIM dastlab qarzi hasan tamoyili asosida faoliyat yuritgan bo'lib, kam ta'minlangan aholiga foizsiz kredit (qarz) berishni yo'lga qo'ygan. Ushbu moliyalashtirish shakli quyidagi asosiy mexanizmlar orqali amalga oshirilgan:

– Besh kishidan iborat kafolat guruhi yoki yakka tartibdagi shaxslar ikki kishining kafilligi bilan kredit olish huquqiga ega bo'lgan.

– Oilaviy kafolat tizimi asosida turmush o'rtoqlar bir-birlariga kafillik berishgan.

– Foizsiz muddatli kreditlar turli ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqdim etilgan.

AIMning asosiy tamoyili shundan iboratki, ko'pchilik insonlar moliyaviy qiyinchilik tufayli yuqori foizli kreditlarni to'lay olmay, mol-mulkini yo'qotishga majbur bo'ladi. Tashkilot esa inflyatsiya darajasidan qat'i nazar, foizsiz kredit berish tamoyilini qo'llab-quvvatlab kelmoqda²². AIM quyidagi turdagi foizsiz muddatli kreditlarni taqdim etadi²³:

– tadbirkorlikni rivojlantirish – yangi biznesni ochish yoki mavjud biznesni kengaytirish uchun;

– moliyaviy ozodlik – yuqori foizli kreditlarni yopish va qarzdand qutulish uchun;

– uy-joy sharoitlarini yaxshilash – uy-joy ta'mirlash va yashash sharoitlarini yaxshilash uchun;

– ta'limni moliyalashtirish – o'qish to'lovlari va ta'lim xarajatlarini qoplash uchun;

– sog'liqni saqlash – tibbiy xizmatlar va dori-darmon xarajatlari uchun;

– oila qurish – nikoh va oilaviy marosimlar uchun;

– favqulodda holatlar – o'lim, kasallik yoki baxtsiz hodisalar bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun.

AIM o'z faoliyati davomida millionlab insonlarga moliyaviy ko'mak berib, ularning iqtisodiy farovonligini oshirishga xizmat qilib kelmoqda²⁴.

Biz yuqorida nisbatan muvaffaqiyatli islom mikromoliyasi modellarini ko'rib chiqdik. Umuman olganda, ushbu mikromoliya modellari mikromoliya tashkiloti qanday ishlashini belgilaydigan umumiy asos yoki tuzilmani anglatadi. Ushbu modellar mikromoliya xizmatlarini ko'rsatishning tamoyillari, qoidalari va tashkiliy tuzilmalarini o'z ichiga oladi. Ularda ko'pincha madaniy va iqtisodiy kontekstlarni aks etadi.

Endi nisbatan umumiy bo'lgan mikromoliyalash usullariga to'xtalaylik. Mikromoliyalashtirish usullari deganda, mazkur modellar doirasida mikromoliyalashtirish maqsadlariga erishish uchun qo'llaniladigan muayyan usullar, vositalar yoki tartib-taomillar tushuniladi. Ushbu usullar xizmatlarni amalga oshirish va ularning mijozlar ehtiyojlariga javob berishini ta'minlash uchun amalga oshirilgan amaliy qadamlarni batafsil yoritib beradi. Islom mikromoliya usullariga murakkab (aralash) usuli²⁵, vakala agentlik modeli, mudoraba agentlik

²² Tursunov A.S. Islomiy mikromoliyalashda “Vaqf” xayriya jamoat fondining faoliyatini rivojlantirish yo'llari. Monografiya. T.: “Lesson Press”, MCHJ nashriyoti 2023. – 194 b.

²³ <https://akhuwat.org.au/microfinance/>


²⁴ <https://akhuwat.org.pk/akhuwat-islamic-microfinance/>

²⁵ Obaidullah M. Introduction to Islamic microfinance //Mohammed Obaidullah, Introduction to Islamic Microfinance, IBF Net Limited. – 2008.

modeli²⁶ hamda SPV modelini²⁷ kiritishimiz mumkin.

Dastlab islom mikromoliyasining murakkab (aralash) usulini ko‘rib chiqaylik (1-rasm)²⁸:

1. Islom mikromoliya tashkiloti yoki dasturi donorlarning hissasi bilan Zakot fondi (jamg‘armasi)ni tashkil etadi;
2. Dastur moddiy va pul mablag‘larini vaqf qilishni osonlashtiradi. Moddiy aktivlar ta‘lim va ko‘nikmalar bilan ta‘minlash uchun ishlatiladi. Pul mablag‘lari naqd vaqf shaklida yoki oddiy sadaqa shaklida bo‘lishi mumkin;
3. Iqtisodiy faol bo‘lmagan eng kam ta‘minlangan aholilarga zakot mablag‘larining bir qismi himoya tarmog‘ini ta‘minlangan holda, ularning ehtiyojlari uchun beriladi.
4. Dastur vaqf mablag‘larining moddiy aktivlaridan foydalangan holda iqtisodiy faol bo‘lmagan aholiga ko‘nikmalarni o‘rgatishni ta‘minlaydi;
5. Ko‘nikmalarni egallash kam ta‘minlangan aholini kambag‘allikdan chiqishga va iqtisodiy faol bo‘lishga olib keladi;



1-rasm. Islom mikromoliyasining murakkab (aralash) usuli²⁹

6. Benefitsiarlar o‘zaro kafolatlangan holda o‘ziga-o‘zi yordam guruhlarini tuzadilar;
7. Moliyalashtirish bay-muajjal, ijara, salam, istisno kabi foyda keltiruvchi qarzga asoslangan instrumentlar yoki mudoraba, mushoraka va kamayib boruvchi mushoraka kabi

²⁶ Wilson R. Making development assistance sustainable through Islamic microfinance // IJUM Journal of Economics and Management by The International Islamic University Malaysia, 15(2), – 2007. – C. 197-217.

²⁷ Wajdi Dusuki A. Banking for the poor: the role of Islamic banking in microfinance initiatives // Humanomics. – 2008. – T. 24. – №. 1. – C. 49-66.

²⁸ Riwayatanti Nur Indah. Islamic Micro finance in Indonesia: A Comparative Analysis between Islamic Financial Cooperative (BMT) and Shari‘ah Rural Bank (BPRS) on Experiences, Challenges, Prospect and Role in Developing Microenterprises, Durham theses, Durham University. <http://etheses.dur.ac.uk/9386/> – 2013.

²⁹ Obaidullah M. Introduction to Islamic microfinance // Mohammed Obaidullah, Introduction to Islamic Microfinance, IBF Net Limited. – 2008.

ulushga asoslangan instrumentlar kombinatsiyasidan foydalangan holda taqdim etiladi;

8. Guruh a’zolari o’z qarzlarini to’laydilar; va/yoki ulush asosida sheriklikka kirishganlarning kutgan natijalarini bajarib, talablarini qondiradilar, buning evaziga esa yuqoriroq darajadagi moliyaviy mablag’ bilan ta’minlanadilar;


9. Guruh tomonidan defoltga qarshi kafolat Zakot fondi (jamg’armasi) tomonidan taqdim etiladi va amaldagi defolt hisobvaraqlari zakot mablag’lari hisobidan qoplanadi;

10. Guruh a’zolari mikro jamg’armalar bo’yicha jamg’arishlari rag’batlantiriladi;

11. Guruh a’zolari tirikchilik manbalarini yo’qotish, kasallik va shunga o’xshash kutilmagan xavf-xatarlardan mikrosug’urta qilish uchun Takoful jamg’armasini tashkil etishga rag’batlantiriladi, tavsiya etiladi.

Islom mikromoliyasining murakkab (aralash) modeli eng kam ta’minlangan aholini qo’llab-quvvatlash uchun zakot va vaqf mablag’larini birlashtiradi, ularda ko’nikmalarni shakllantiradi, jamg’arishni rag’batlantiradi va qarz hamda ulushga asoslangan moliyashtirishni taklif etadi. Ushbu usul o’z-o’ziga yordam guruhlarini shakllantirish va defolt holatlarini insonparvarlik nuqtai nazaridan munosabatda bo’lish bilan hal qilish orqali barqaror rivojlanish va moliyaviy inklyuzivlikni rag’batlantirishga qaratilgan.

2-rasmda tasvirlangan vakala modeli zakot va nodavlat notijorat tashkilotlar mablag’laridan foydalanib, ularni qarzi hasan sifatida kam ta’minlangan aholiga tarqatadi. Shu tarzda zakot muhtojlarni mustaqil bo’lishga o’rgatuvchi va o’z-o’zini ta’minlovchi rivojlanish vositasi sifatida targ’ib qilinadi.




2-rasm. Vakala agentligi usuli³⁰

Boshqaruv kompaniyasi agentlik vazifasini bajaradi va tegishli kredit (qarz) arizalarini baholab ko’rib chiqadi. Bu vazifa uchun vakala fondidan ulush olish o’rniga, operatsiyani

³⁰ Riwayatni Nur Indah. Islamic Micro nance in Indonesia: A Comparative Analysis between Islamic Financial Cooperative (BMT) and Shari’ah Rural Bank (BPRS) on Experiences, Challenges, Prospect and Role in Developing Microenterprises, Durham theses, Durham University. <http://etheses.dur.ac.uk/9386/> – 2013.

amalga oshirganlik uchun mukofot sifatida boshqaruvga belgilangan miqdordagi to'lov beriladi. Ishtirokchilar fondan mablag'lar olishlari mumkin, biroq kapitalning asosiy qismi chiqib ketmasligi uchun me'yorlash mexanizmi va ustuvorlik tamoyili qo'llaniladi. Bu jihatdan u kredit uyushmalariga o'xshaydi, lekin malakali moliyaviy boshqaruv va mijozlarni himoya qilish tizimi bilan ta'minlangan. Ushbu usul islom sug'urtasi – takofulda keng qo'llaniladi, chunki unda boshqa ishtirokchilarga yordam berish maqsadida daromad to'plash uchun tabarru (ishtirokchilarning boshqa ishtirokchilarga yordam berish uchun ixtiyoriy ravishda o'zaro jamg'armaga qo'shadigan hissalarini) mablag'larini xayriya qilish nazarda tutilgan. Boshqa daromadlar boshqaruv xizmatlari uchun olinadigan to'lovlar (jualah) orqali jamlanadi.

3-rasmda ko'rsatilganidek, mudoraba modeli vakala modelidan farqli ravishda foyda va zararni taqsimlash shartnomasiga asoslanadi³¹. Bu modelda kompaniya robbul mol sifatida faoliyat yuritib, mablag'larni mijozlarga (mudorib) investitsiya qiladi va buning evaziga oldindan kelishilgan foydaning ma'lum ulushini oladi, bu esa uni qo'shma korxonalariga (joint venture) o'xshatadi. Natijada, haqiqiy foyda o'zgarib turishi sababli, ulush miqdori ham o'zgarib turadi (qat'iy belgilanmaydi). Zarar ko'rilganda, tashkilot mablag'larni qaytarib ololmasligini tan oladi, mijozlar esa biznesni yuritishda sarflagan mehnatlari uchun mukofot ololmaslik riskiga duch keladi. Zakot mablag'larini bu usulda qo'llash mumkin emas, chunki bu usul ijtimoiy emas, balki tijorat xususiyatiga ega. Ushbu usuldagi muammolar, an'anaviy usuldagi kabi, mijozlarning majburiyatlari haqida ma'lumot olishdagi qiyinchiliklar tufayli yuzaga keladigan axborot nomutanosibligi va mablag'lardan noto'g'ri foydalanish holatlari tufayli kelib chiqadigan axloqiy riskdir.




3-rasm. Mudoraba usuli³²

³¹ Wilson R. Making development assistance sustainable through Islamic microfinance // IJUM Journal of Economics and Management by The International Islamic University Malaysia, 15(2), – 2007. – C. 197-217.

³² Riwayatanti Nur Indah. Islamic Micro finance in Indonesia: A Comparative Analysis between Islamic Financial Cooperative (BMT) and Shari'ah Rural Bank (BPRS) on Experiences, Challenges, Prospect and Role in Developing Microenterprises, Durham theses, Durham University. <http://etheses.dur.ac.uk/9386/> – 2013.

R.Vilson esa mikromoliya xizmatlari islom banklari tomonidan emas, balki ixtisoslashgan moliya institutlari tomonidan taqdim etilishi kerakligini ta'kidlaydi³³. R.Vilson konsepsiyasidan farqli o'laroq, H.Ahmad islom mikromoliya tashkilotining ikkita modelini taklif qilgan³⁴. Birinchisi, islom banklari guruhli moliyalashtirish va haftalik to'lovlarning bir xil shaklini qo'llaydigan mikromoliya bo'limini tashkil etish orqali islom mikromoliyasini boshqarishi mumkin. Ushbu taklif islom banklarida moliyalashtirishni boshqarish uchun ko'proq malakali xodimlar va ma'muriy xarajatlarni kamaytirishi mumkin bo'lgan ko'p sonli filiallar/tarmoqlar mavjudligi haqidagi dalilga asoslanadi, shuning uchun islom banklarining islom mikromoliya operatsiyalari islom mikromoliya tashkilotlariga qaraganda samaraliroq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, islom banklarining iqtisodiy samaradorligi ularning kengroq faoliyat yuritishi tufayli mavjud mablag'lar va operatsion xarajatlarning pastligi jihatidan islom mikromoliya tashkilotlarga nisbatan yuqori bo'lishi mumkin. Natijada, mikromoliyalash va ijtimoiy xizmatlar yanada samaraliroq boshqaruv bilan ta'minlanishi mumkin.

Ikkinchisi, zakot, vaqf, qarzi hasan va sadaqa kabi an'anaviy islom moliyasi instrumentlari orqali islom mikromoliya faoliyati ta'minotini rivojlantirish imkoniyati mavjud. So'nggi vaqtlarda tadqiqotchilar ushbu konsepsiyani amalga oshirishga tobora ko'proq qiziqish bildirishayotganligi ham sir emas. Ushbu konsepsiyaga mos ravishda, ba'zi olimlar mikromoliya islom banklari tomonidan emas, balki vaqf muassasalari tomonidan taqdim etilishi kerakligi haqida ham fikr bildirishgan³⁵.



4-rasm. SPV usuli³⁶

³³ Wilson R. Making development assistance sustainable through Islamic microfinance // IJUM Journal of Economics and Management by The International Islamic University Malaysia, 15(2), – 2007. – C. 197-217.

³⁴ Ahmed H. Organizational models of Islamic microfinance //Shari'a Compliant Microfinance. – Routledge, 2013. – C. 17-32.

³⁵ Zarka M. A. Leveraging Philanthropy: Monetary waqf for Microfinance 1 //Shari'a Compliant Microfinance. – Routledge, 2013. – C. 76-80.

³⁶ Riwayatni Nur Indah. Islamic Micro nance in Indonesia: A Comparative Analysis between Islamic Financial Cooperative (BMT) and Shari'ah Rural Bank (BPRS) on Experiences, Challenges, Prospect and Role in Developing Microenterprises, Durham theses, Durham University. <http://etheses.dur.ac.uk/9386/> – 2013.

Shu bilan birga, 4-rasmda tasvirlangan SPV modelini ham taklif etilgan³⁷. Bu muqobil model quyidagi xususiyatlarga ega: islom banklari tomonidan aniq mikromoliyalashtirish maqsadlariga ega bo'lgan turli xil moliyaviy manbalar safarbar qilinadi; bankrotlikdan uzoq bo'lgan maxsus maqsadli tashkilot (SPV) tuziladi; ma'lum miqdordagi mablag'lar ajratilib, o'sha SPVga yo'naltiriladi; mablag'lar mijozlarning ehtiyojlariga asosan taqsimlanadi.

Yuqoridagi tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, islom mikromoliyasi an'anaviy mikromoliyaning asosiy tuzilmasini haftalik/oylik to'lovlar va ijtimoiy rivojlanish dasturlari jihatidan saqlab qoladi. Biroq, islom mikromoliyasi xayriya mablag'lari (zakot, vaqf) kabi tashqi manbalardan foydalanish imkoniyatlariga ko'proq ega. Bundan tashqari, uning moliyalashtirish instrumentlari kam ta'minlangan aholining turli ehtiyojlarini qondirish uchun xilma-xilroq va to'lovlarni qaytara olmaydigan mijozlarga nisbatan yondashuvi yumshoqroqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Islom mikromoliyasi moliya institutlarida barqaror va inklyuziv moliyalashtirish mexanizmlarini yaratishda muhim rol o'ynamoqda. Uning rivojlanishi islom tamoyillariga asoslangan holda kam ta'minlangan aholi va tadbirkorlar uchun moliyaviy xizmatlar imkoniyatlarini kengaytirdi. Islom mikromoliya tashkilotlarining manbalari davlat, xalqaro tashkilotlar, zakot, vaqf kabi tashqi manbalardan iborat bo'lishi mumkin, shuningdek, ushbu tashkilotlar o'zini o'zi ta'minlovchi tashkilotlarga ham aylanishi mumkin. Yuqorida ko'rib chiqilgan modellar va usullardan shuni xulosa qilish mumkinki, islom mikromoliyasi an'anaviy mikromoliyaning haftalik/oylik to'lovlar hamda ijtimoiy rivojlanish dasturlari jihatidan saqlab qoladi. Lekin, uning moliyalashtirish usullari kam ta'minlangan aholining turli ehtiyojlarini qondirish uchun xilma-xillikni ta'minlaydi va to'lovlarni qaytara olmaydigan mijozlarga nisbatan yondashuvi yumshoqroq hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan modellar mikromoliya tashkilotlarining umumiy yondashuvi va tuzilishini tavsifladi, usullar esa ushbu modellardagi xizmatlarni amalga oshirish va boshqarish uchun qo'llaniladigan o'ziga xos jarayonlar va usullarni anglatadi. Jumladan, murakkab (aralash) mikromoliya usuli zakot fondini yaratish, vaqf fondini shakllantirish, ko'nikmalarni o'rgatish va kreditlarni qaytarish tuzilmalaridan foydalanadi. Vakala usuli esa zakot va nodavlat notijorat donorlar mablag'laridan boshqaruv to'lovlari bilan foizsiz kreditlar berish uchun foydalanadi. Mudoraba usuli esa mijozlarga sarmoya kiritayotgan tomon bilan foyda va zararni taqsimlash shartnomalariga asoslanadi. SPV mikromoliya usuli esa turli xil moliyalashtirish manbalari, SPV tashkil qilish va mijozlar talabiga qarab taqsimlash xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdalla R. A., Alaaraj H. K., Mulla G. S. The Contribution of Islamic Banking and Finance to the Sustainable Development Goals of 2030 //Sustainable Innovations in Management in the Digital Transformation Era. – Routledge, 2024. – C. 249-261.
2. Abdulla, Adam, Master thesis: Experience of Agriculture Sudan Bank, University of Science and technology Sudan, 2014
3. Ahmed H. Organizational models of Islamic microfinance //Shari'a Compliant Microfinance. – Routledge, 2013. – C. 17-32.

³⁷ Wajdi Dusuki A. Banking for the poor: the role of Islamic banking in microfinance initiatives //Humanomics. – 2008. – T. 24. – №. 1. – C. 49-66.

4. Ali H. et al. Islamic microfinance: landscape, models and future prospects. – Walter de Gruyter GmbH & Co KG, 2024.
5. Azman S. M. M. S., Ali E. R. A. E. Islamic social finance and the imperative for social impact measurement //Al-Shajarah: Journal of the International Institute of Islamic Thought and Civilisation (ISTAC). – 2019.
6. Farooq M. O. The challenge of poverty and mapping out solutions: requisite paradigm shift from a problem-solving and Islamic perspective //Journal of Islamic Economics, Banking and Finance. – 2009. – T. 5. – №. 2. – C. 45-76.
7. Jubaedah D., Sopiah E., Fatahillah I. A. The Strategy and Effectiveness of Baitul Maal wa Tamwil in Eradicating Loan Shark Practices in Java and Sumatra //Fonologi: Jurnal Ilmuan Bahasa dan Sastra Inggris. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 28-40.
8. Obaidullah M. Introduction to Islamic microfinance //Mohammed Obaidullah, Introduction to Islamic Microfinance, IBF Net Limited. – 2008.
9. Poverty Reduction scaling up local innovation for transformational change report, United Nations Development Programme, November 2012, www.undp.org/poverty, poverty.reduction@undp.org
10. Rahim Abdul Rahman A. Islamic microfinance: an ethical alternative to poverty alleviation //Humanomics. – 2010. – T. 26. – №. 4. – C. 284-295.
11. Rahman M. M., Jafrullah M., Islam A. N. M. T. Rural development scheme of Islami Bank Bangladesh Limited (IBBL): assessment and challenges //International Journal of Economics, Management and Accounting. – 2008. – T. 16. – №. 2.
12. Riwayatanti Nur Indah. Islamic Micro finance in Indonesia: A Comparative Analysis between Islamic Financial Cooperative (BMT) and Shari’ah Rural Bank (BPRS) on Experiences, Challenges, Prospect and Role in Developing Microenterprises, Durham theses, Durham University. <http://etheses.dur.ac.uk/9386/> – 2013.
13. Scaling up Islamic Microfinance in Bangladesh through the Private Sector: Experience of Islami Bank Bangladesh Limited (IBBL), – case study, UNDP, 2017.
14. Sultan H. Islamic Microfinance: Between Commercial Viability and the Higher Objectives of Shari’a //Shari’a Compliant Microfinance. – Routledge, 2013. – C. 46-59.
15. Wajdi Dusuki A. Banking for the poor: the role of Islamic banking in microfinance initiatives //Humanomics. – 2008. – T. 24. – №. 1. – C. 49-66.
16. Wilson R. Making development assistance sustainable through Islamic microfinance // IJUM Journal of Economics and Management by The International Islamic University Malaysia, 15(2), – 2007. – C. 197-217.
17. Zarka M. A. Leveraging Philanthropy: Monetary waqf for Microfinance 1 //Shari’a Compliant Microfinance. – Routledge, 2013. – C. 76-80.
18. <https://akhuwat.org.pk/akhuwat-islamic-microfinanc/>